



## O'SPIRINLIK DAVRIDA JINOYATCHILIK HOLATLARINI OLDINI OLUVCHI OMILLAR

---

*Otaboyeva Oysha Baxodirovna*

*Tuproqqał'a tumani 20- son maktab amaliyotchi psixologи*

**Annotatsiya:** Jinoyatchilikni yoshga bog'liqligi, qaysi yosh davrida shakllanishi, o'smirlik davri inqirozlar haqida.

**Kalit so'zlar:** Yosh davrlari psixologiyasi, bolalik, inqroz va krizis,o'smirlik, depressivlik, agressivlik.

O'spirin bola bilan katta odam o'rtasidagi oraliq mavqeni egallaydi. Bolaning jamiyatda tutgan o'rni kattalarga bog'liqdir, kattalar ularga hayot faoliyatining asosiy mazmun va yo'nalishini belgilab beradilar. Bolaning bajaradigan roli kattalar roldan sifat jixadan farq qiladi. Hayot faoliyati murakkablashgan sari o'spirinlarda ijtimoiy rollar kengligi faqat miqdor tomondangina kengayib qolmay, balki sifat tomonidan ham o'zgarib boradi. M: 16 yoshda pasport oladi. 18 yoshidan faol saylash xuquqiga va oila qurish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'spirin jinoiy ishlar uchun javobgar bo'ladi. Ba'zi o'spirinlar bu yoshdan boshlab ishlay ham boshlaydilar. Kasb tanlash haqida o'ylay boshlaydilar. Lekin shunga qaramay o'spirinlarda kattalarga qaramlik xususiyatlari saqlanib qoladi. O'spirinlar (16 –18 yoshlar) o'zlarining psixologik xususiyatlari bilan boshqa yosh davrdagi bolalardan keskin farq qiladilar jismoniy, ham aqliy jixatdan voyaga yetgan, kamolotga erishgan, dunyoqarashi, o'z –o'zini boshqarishi kabi yetuk insoniy xususiyatlari tarkib topgan bo'ladi. Shu tufayli ular vazmin,muloxazali bo'ladilar, katta yoshdagilarga hurmat –ehtirom bilan qaraydilar. Ular uzoqni ko'zlaydigan, kelajak uchun qayg'uradigan, ota –onalarining yaqin yordamchisiga aylanadilar. O'quv faoliyati o'spirinning asosiy faoliyati bo'lib qolaveradi, lekin o'qishga nisbatan faqat o'smirlik yoshiga qaraganda o'spirinlikda bir muncha yuqoriqoq bo'ladi. Mustaqil hayotga tayyorgarligini o'z –o'zini anglash bilan motivlar bu davrda yetakchi o'rinni egallaydi. Motivlar tizimida jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishga intilish insonlarga naf keltirish kabi ijtimoiy motivlar ustunlik qiladi. Bu davrda o'spirinlarning kelgusi hayotiy va tanlayotgan kasbiy rejalariga ko'ra fanlarga nisbatan qiziqishlari ham o'zgaradi va bu o'z navbatida o'spirinning fanlarga, hamda shu fan o'qituvchilariga nisbatan munosabat ham o'zgaradi.



Psixologlarning fikricha, o'smirlik davri shaxs sifatida intensiv rivojlanish davri bo'lib, bu yoshda ma'naviy va intellektual jihatdan o'sish jarayoni kuchayadi. O'smir ruhiy faoliyatida keskin o'zgarishlar yuzaga keladi. Bu yoshda organizmning mukammallashuvi va qayta shakllanish jarayoni kuchayadi. Bu yoshda bola bolalikdan o'smirlikka, quyi rivojlanish pog'onasidan yetuklik bosqichiga o'ta boshlaydi. Bolalik dunyosini tark etgan o'smir hali katta bo'lmadi, shu bois uning xulqida ayrim qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar uchraydi. O'smirlik davri fanda xulq og'ishi darajasiga ko'ra "inqiroz davri" deyiladi. Inqirozli holatlar darajasi ota-onaning ta'sirchanlik roli sust bo'lgan yoki noto'liq oilalarda tarbiyalangan bolalarda ancha yuqori bo'ladi. Bunday bolalar tez-tez uyga kelmaslikni, ko'chabezorilik, daydilikni odad qiladilar. Shuning natijasida o'smir jinoyatchilik ko'chasiga kirib ketadi. Bu davrda o'smir shaxsida depressivlik, agressiya, qo'zg'aluvchanlik, o'z joniga qasd qilish holatlari ham kuzatilishi mumkin.

O'smirlik davrida shakllangan yuqoridagi omillar o'spirinlik davrida ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Natijada o'qish va mehnat jarayonida katta qatlaming analetik sintetik faoliyati murakkablashadi. Bu hol bola dunyoqarashini shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ilk o'spirinlik davrini ikkinchi o'tish davri deb hisoblash mumkin. Agar birinchi o'tish davridagi ko'proq bolalikka yaqin bo'lsa, ikkinchi o'tish davrida bo'lgan o'spirin ko'proq yoshlik davriga yaqindir va shu jixatidan o'rganiladi, xamda tadqiq etiladi. Ilk o'spirinlik davri asosan unda mustaqil hayotning boshlanishi bilan (o'rta maktabni tamomlab litsey, kollejlarga kirishi) xarakterlanadi. Hayotdagি bu o'zgarishlar ilk o'spirinlik shaxsiga, uni o'z -o'zini anglashiga to'liq ta'sir ko'rsatadi. O'smirlardan farqli o'laroq ilk o'spirinlar katta hayotni tasavvur etmaydilar, balki snda ishtirok etadilar. Uning nafaqat mustaqilligi ortishi bilan bir qatorda kattalarning unga munosabatlari ham o'zgaradi. Kattalar o'smirga ko'proq bola deb qarasalar, ilk o'spirin yoshdagilarga katta odamdek munosabatda bo'ladilar. Ilk o'spirinlar hayotda o'z o'mini topishga nisbatan intilish anglagan holatida bo'la boshlaydilar. U o'z hayotiy rejalarini amalga oshirish uchun xarakat qila boshlaydi va ma'lum bir kasbni egallay boshlaydi yoki shu soha bo'yicha akademik litseylarda o'qishini davom ettiradi. O'spirinlar tanlagan sohalari yoki kasblarida juda katta yangiliklar, kashfiyotlar qilgilar keladi, lekin asta-sekinlik bilan yangilik va kashfiyotlar qilish uchun ularda bilim va tajriba yetishmayotganligini va buning uchun ko'proq o'qish va o'rganishlari kerakligini anglay boshlaydilar.



O'spirinlik davrida o'z ko'zlagan maqsadlariga erishishga asoslangan motivlar birinchi o'ringa ko'tariladi. O'smirlar o'zlarining o'qishga bo'lgan munosabatlari va ularning o'qish –o'rganishga undovchi sabablarni yaxshi anglaydilar.

O'spirinlik yoshida boshdan kechiriladigan his tuyg'ularning boyligi, hilma-hilligi bilan, hayotning turli tomonlariga emotsiyonal munosabatda bo'lish bilan ajralib turadi. Ahloqiy va ijtimoiy siyosiy hislarning rivojlanishi ayniqsa xarakterlidir. Ular odatda muayyan ahloqiy talablar bilan o'zaro to'g'ri munosabatda bo'ladilar. Boshdan kechirgan his tuyg'ularni anglab etish mahorati ham rivojlanadi. O'spirinlik yoshida o'quvchilarda o'rtoqlik hissining rivoj topishi xarakterlidir.

O'spirinlik yoshidagi do'stlik ko'pincha butun umr buyi davom etadi. O'rtoqlik munosabatlari kollektivni jipslashtirishga yordam beradi, uning hayotiy faoliyatini oshiradi. Yoningda o'rtog'ing borligini his qilishning o'ziyoq qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. O'spirinlar do'stlik, samimiylit emotsiyonal sofдillik kabi hislatlarni birinchi o'ringa qo'yishadi. Do'stlar bir-birlari bilan yuraklarini bo'shatadilar. Do'stlarga samimiylit mexribonlik shaxsining reflektivlik darajasiga, hamda uning emotsiyonal xayot xususiyatlariga bog'liqdir. O'spirin hamma vaqt rostgo'y, samimiylit bo'lishni istaydi. O'spirinlik yoshida alohida bir his-sevgi paydo bo'ladi. Bu maktab o'quvchisining emotsiyonal hayotida mutlaqo yangi bir holat bo'lib, hisoblanadi. O'spirinlik sevgisi odatda sof, pokiza, beg'ubor, hilma-hil kechinmalarga boy, muloyimlik, xayolga berishish va samimiylit belgilariga ega bo'ladi. Yigit va qizlarimizning sevgini boshdan kechirishida bir-birlarini hurmat qilish, do'stlik, o'zaro yordam, bir-birini tushunish kabi hislatlar xarakterli bo'lib, ular bir-birlaridagi yuksak ma'naviy sifatlarni qadrlaydilar. Yigit va qiz bolalar o'rtasidagi munosabatlар o'spirinlik yoshida faollashgan bo'ladi. O'rtoqlarga munosabatlар doirasi kengayadi. Ayniqsa qizlarda aralash do'stlik ehtiyojlari kengayadi. Dastlab bolalarga xos sodda sevishlik 16-17 yoshda birinchi jiddiy moyillik va qattiq sevgi ehtiyojlari ko'rina boshlaydi. Ikki jins o'rtasidagi o'zaro munosabat masalasi asosiy muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'spirinlarda sevgi hissining bir qancha holatlarga bog'liq.

### Birinchidan –jinsiy yetilish

Ikkinchidan – ishonadigan, suyanadigan va har qanday nozik masalalar bo'yicha gaplashish mumkin bo'lgan do'stga ehtiyoj.

Uchinchidan –bu tabiiy insoniy ehtiyoj hisoblanib inson ko'pincha o'zini yolg'iz his qilganida kuchli emotsiyonal bog'liqlikga intiladi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha bunday tuyg'u kuchaygan shaklda birinchi bora asosan ilk o'spirinlik davrida yuzaga keladi. O'spirinlar tasavvuridagi ideal kimnidir



yoqtirishiga, sevishiga turtki bo‘ladi. O‘spirinlarning ideal obrazlari ba’zan real bo‘lmaydi, ya’ni ular hech kimni «unga» o‘xshatmaydilar.

O‘spirinlar atrofdagi turli voqealarda xodisalardagi haqiqatni bilishga intiladi. Ularning tayyor yechimlar, tayyor ma’lumotlar emas, balki shu yechim va ma’lumotlarni o‘zlari muloxaza yurgizib qildirish jarayonining o‘zi ko‘proq qiziqtiradi. Bu borada turli masalalar bo‘yicha baxs va munozaralar yuritishga va ularning fikrlarini isbotlashga juda qiziqadilar. O‘spirinlik davrida bilish jarayonlarining rivoji faol ravishda davom etadi. Lekin bu rivojlanish o‘spiringning o‘ziga va uning atrofidagi kuzatuvchilarga kam seziladi. Bu davrga kelib o‘spirinlar to‘la ravishda mantiqiy tafakkur eta oladilar, nazariy fikr yuritib o‘zlarini –o‘zlari tahlil eta oladilar. Ular endi bemalol ahloqiy, siyosiy va boshqa mavzularda baxslasha olib o‘z munosabatlarini bildira oladilar.

O‘spirinlik davrida bolalar juda ko‘p ilmiy tushinchalarni o‘zlashtirib, ulardan turli masala va muammolarni yengishda foydalana oladilar. Bolalarda anglash va o‘z-o‘zini anglash sezilarli darajada o‘sadi. O‘spiringning o‘z-o‘zini anglashi o‘quv, mehnat va muloqot motivatsiyalarini o‘zgarishida o‘z aksini topadi. Bu davrga kelib bolada yangi faoliyatlar yuzaga kelib psixik rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Yosh va pedagogik psixologiya T.1991.
2. G.Q.Tolaganova, — Tarbiyasi qiyin o’smirlar|| Toshkeny; 2005. 65- bet.
3. Entoni Giddens. Sosiologiya, toshkent 2012. 149-bet.
- 4 . B.M.Umarov.: psixologiya. toshkent 2012, 61-bet.
5. B.Sodiqov. — Tarbiyasi qiyin o’smirlar psixologiyasi|| Termiz.; 2003 yil
6. Bola va Zamon. 4/2007. 29-bet.